

SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA IJTIMOY-IQTISODIY QARAM XULQ- ATVOR PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Sharapova Dildora Baxtiyorovna

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqola sharq allomalari asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy qaram xulq-atvorning pedagogik, psixologik iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muammolarini, mazkur xulq-atvorning jamiyat va insoniyat uchun xavfli jihatlarini o'rganishga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy-iqtisodiy qaram xulq-atvor, milliy qadriyat, tasavvuf, kasb-hunar, kambag'allik.*

Аннотация: *Данная статья посвящена исследованию педагогических, психологических, экономических, политических и социальных проблем социально-экономического зависимого поведения в трудах восточных учёных, а также опасных сторон этого поведения для общества и человечества.*

Ключевые слова: *социально-экономическое зависимое поведение, национальная ценность, мистика, профессия, бедность.*

Annotation: *This article is devoted to the study of pedagogical, psychological, economic, political and social problems of socio-economic dependent behavior in the works of Eastern scientists, as well as the dangerous aspects of this behavior for society and humanity.*

Key words: *socio-economic dependent behavior, national value, mysticism, profession, poverty.*

Tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, har bir jamiyat, davlat o'zining milliy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, taraqqiyotga erisha olmaydi. Kambag'allikni qisqartirish masalasi ham milliy ma'naviy qadriyatlarimizda alohida o'rin egallaganini ko'rish mumkin.

Inson o'zining kundalik amaliy faoliyatida o'ziga to'q, iymonli bo'lishi uchun, ya'ni iymonini mustahkamlashi uchun Sharqning buyuk shoirlaridan biri – So'fi Olloyor aytganidek, bilimli, ilmi kishilar suhbatida tez-tez bo'lib turmog'i darkor. Boshqacha aytganimizda, iymonli bo'lishning dastlabki shartlaridan biri – ziyoli, bilimli, ilmi kishilar suhbatida bo'lishdir. Bunday suhbatlarda bo'lgan inson o'zo'zidan munofiq, johil kimsalar davrasidan o'zini olib qocha boshlaydi. Ulamolalar, yaxshi kishilar suhbatida bo'lgan kishi asta-sekin savob ishlar qilishni o'ziga odat qila boshlaydi. Jumladan, tashnaga suv beradi, bemordan hol so'raydi, kambag'al bechoraga shafqat ko'rsatadi, ota-onaning hurmatini o'rniga qo'ya boshlaydi va xokazo. Iymonli kishi barcha yaxshiliklarga amal qilishni o'ziga odat qiladi [4, 119-123].

Farobiy fe'li yomon insonlarni hatto kasb-hunar ham tuzata olmasligini aytadi. Yomon hattot badbaxtligi tufayli yozuvi ham hunuklashib borishini, fazilatsiz

shaharlarning odamlari yomon fe'llar, tabiatlari tufayli ko'ngillari ham yomonlashib borishini ta'kidlaydi. Adashgan jaholatda qolgan shahar aholisi faqat moddiy mulk, noz-ne'matlarga qiziqadi, obro'-izzat, mol-dunyo, boylikdan rohatlanishga intiladi, adolatli qonunlarni buzishga, haqiqatga aloqador narsalardan uzoqlashishga urunadi. Boshqa ba'zilar esa yordamchi va hizmatkorlarsiz hayotiy ehtiyojlarini qondirolmagani uchun, shularning g'amxo'rligisiz yashay olmaganlari uchun birlashib yashash foydalidir deb o'ylaydi [1, 254-265].

Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida inson faqat jamiyatda, boshqa kishilar bilan muloqotda va foydali mehnatda chinakam kamolotga yetishini ta'kidlab, insonga foyda keltirmaydigan inson – o'likdir, deb ta'kidlaydi. Jamiyatda mehnat ahli – dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar hal qiluvchi rol o'ynaydi, deb uqtiradi. Mutafakkir yolg'onchi, munofiq kishilar jamiyat uchun zararli, bunday kishilardan uzoq bo'lish kerak deydi [8].

Ahmad Yugnakiy o'zining "Hibatul-haqoyiq" dostonida dunyoning o'tkinchiligi haqida gapirib: dunyo go'yo karvon faqat ozgina fursat to'xtab o'tiladigan karvonsaroyga o'xshatadi. Bu dunyoda rohat-farog'atga intilish befoyda, uni deb azob-uqubat chekish yaramasligi, bugun ko'rib turgan boylik ertaga g'oyib bo'lishi mumkinligi, o'zinniki deb bilgan buyumlarimiz boshqalarga qolib ketishi mumkinligi, shuning uchun faqat yaxshilik urug'ini sepish uchungina yashash kerak ekanligini uqtiradi. U bilimli, ma'rifatli kishilarni yetuk kishilar deb hisoblab, inson bilan bilimni ajratib bo'lmasligi, faqat bilimli kishigina kamol topishi mumkin deb ta'kidlaydi. Shu bilan birga mutafakkir halollik va haqgo'ylik, saxiylik inson uchun fazilat, unga intilish kerakligi, xasislik va badfe'llikni qoralaydi. Faqat yaxshi ishlar qilibgina yaxshi natijalar kutish mumkinligi, "...tikan ekib, hosiliga uzum olmasan" deb aytadi [5, 113].

Tasavvufning qalandarlik oqimiga e'tiqod qilgan XVII-XIII asr shoiri Boborahim Mashrab o'zining she'r va g'azallarida axloqiy, ma'naviy poklikka erishish, hayotdagi illatlarga qarshi kurashish haqida yozib, hokimlardan adolatli bo'lishni, ularga murojaat qilib, xalq to'g'risida g'amxo'rlik qilishni, ularning arz-dodiga quloq solishni so'raydi. Mashrab kishilarni boylikka hirs qo'ymaslikka, o'zgalarga yaxshilik qilishga, sahiylikka, halol bo'lishga, o'z mehnati evaziga yashash, nafsni tiyishga chaqiradi [6].

Ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyillik illati qaysi xalqda ildiz otsa, albatta, uni zaiflashtiradi, taraqqiyot karvonidan ortda qoldiradi va vayron qiladi. Bu kasallik qaysi shaxsga yetsa, uni xor qiladi, obro'sidan ayiradi. Odamlari tanbal, ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil bo'lgan, ilmu fan rivojlanmagan, qonun toptalgan yurt umuman rivoj topmaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyillik bekorchilik illatini keltirib chiqaradi, yoki aksincha: bekorchilik ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyillikka olib boradi. Chunki qiladigan ishining tayini yo'q odam vaqt bo'shlig'ini ko'pincha befoyda narsalar bilan to'ldiradi.

Bekorchilik eng zararli ofatlardan biridir. Aqlli inson bu dunyoda bekor turmaydi. Hatto bo'sh vaqtini ham zoye qilmaydi. Balki yo dunyo, yoki oxirat uchun foydali bo'lgan ishlarga sarflaydi.

Bekorchilik sekin-asta insonni ishdan chiqaradi, hayotini vayron qiladi. Tana a'zolari harakatsiz qolsa, ishdan chiqadi, zaiflashib qoladi. Sport mana shuning uchun chiqarilgan. Xuddi shu kabi qalbning ham o'z riyozati (sporti) bo'lishi kerak. Zero, bekorchilik birinchi navbatda qalbgga, nafsga hujum qiladi. Shu bois ham hazrat Umar (roziyallohu anhu): "Nafsingni foydali narsalar bilan mashg'ul qil, aks holda uni zararli narsalar egallab oladi", deb bekorchilikdan ogohlantirganlar.

Faqih Abu Lays Samarqandiy dedilar: "Qiyomat kuni to'rtta toifa insonlar keltiriladi. Ularning har biri uzr keltiriladi, lekin ularning uzrlari qabul bo'lmaydi. Birinchisi boylar bo'lib, ular: "Yo Parvardigiro, boyligimiz Senga ibodat qilishdan bizlarni man qildi", deyishadi. Alloh ularga Sulaymon alayhissalomni hujjat qilib, "Sizlar Sulaymondan ham boyroqmisizlar?! Zero, Sulaymonning boyligi uni Menga ibodat qilishdan to'smadi", deb uzr aytadilar. Alloh ularga Iso alayhissalomni hujjat qilib: "Sizlar Isodan ham kambag'alroqmisizlar?! Zero, kambag'allik Isoni Menga ibodat qilishdan to'smadi. Sizlarning uzrlaringiz maqbul emasdir", deb javob beradi. Ular ham do'zaxga haydaladilar. Uchinchi qullar bo'lib: "Yo Parvardigoro, bizlar qul edik, shu bois, Senga ibodat qila olmadik", deydi. Alloh ularga Yusuf alayhissalomni hujjat qilib: "Albatta, Yusuf qul bo'lishiga qaramasdan, Menga ibodat qilishdan to'xtamadi. Sizlarning ham uzrlaringiz maqbul emasdir", deydi. Ular ham do'zaxga haydaladilar. Keying uzr aytuvchilar kasallar bo'lib, ular: "Yo Parvardigoro, kasalligimiz bizni Senga ibodat qilishdan qaytardi", deyishadi. Alloh ularga Ayyub alayhissalomni hujjat qilib: "Sizlar Ayyubdan ham kasalroq edinglarmi?! Zero, Ayyubning kasali uni Menga ibodat qilishdan to'sib qo'ymadi. Sizlarning uzrlaringiz maqbul emasdir", deb javob beradi va ular ham do'zaxga haydaladilar" [7, 186].

Buzurgmehrdan "Qaysi podshoh ulug'roqdir?" deb so'radilar. U esa, Begunoh odamlarni omonda saqlaydigan va gunohkorlarni qo'rquvda tutadigan, barq uruvchi tig'ining xandasi sitamkorlar yig'isi yondosh bo'lgan va fayz yetkazuvchi lutfining nasimi kambag'allarga in'om yomg'iri bilan hamnafas bo'lgan podshoh ulug'dir" [2] deya javob qaytardi.

Ma'lumki, Amir Temur odob-axloq, iymon, e'tiqod, ta'lim-tarbiyada o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Tarix fanlari doktori, professor Ashraf Ahmad Amir Temurning o'zi amal qilgan o'n bir sifatni sanab o'tib, birinchi-uchinchi sifatlar aynan bag'rikenglik, saxovat, kambag'allarga yordam qo'lini cho'zish sifatlaridir, deydi. Jumladan, Birinchi sifat: "Men sifatlarimning eng avvalgi deb beg'arazlikni tushundim. Hammaga ham bir xil: jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmasdim, boyni kambag'aldan ustun qo'ymadim". Ikkinchi sifat: "Men har doim Islomga qat'iy rioya qildim va Alloh Taoloning amri bilan ulug'langan shaxslarga hurmat bilan qaradim". Uchinchi

sifat: “Men kambag‘allarga ko‘p xayr-ehson qildim. Har mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to‘g‘ri hal qilishga butun jahdimni sarf qildim”. Tarixning guvohlik berishicha, Amir Temur davrigacha ham, undan keyin ham faqat boylik ortidan quvgan odamlar bo‘lgan. Sohibqiron tushunchasiga ko‘ra, kimki biror ishni faqat boylik orttirish maqsadida amalga oshirsa, u baxtsiz insondir.

Mabodo podshoh biror gunohkorning aybini kechirsa, bu bilan fuqarosiga rahm qilgan bo‘ladi. U kambag‘alning oldidan biror yordam bermay o‘tmagan. “Men bir qo‘limda adolat shamini va ikkinchi qo‘limda beg‘arazlik shamini tutib, ham ikki sham bilan butun umr bo‘yi o‘z yo‘limni yoritib yurdim. Barcha qilmishlarimda ana shunday adolat qoidalariga rioya qildim” [3, 957-961].

Abu Yazid Bistomiy aytadilar: “Shahrimizga kelgan balxlik bir kishidan o‘zga hech kim menga g‘olib bo‘lmagan. U mendan: “Sizlardagi zohidlikning chegarasi nima?” deb so‘radi. Men: “Topsak yeymiz, topmasak sabr qilamiz” dedim. “Balx itlari ham shunday qiladi” dedi u. “Sizlardagi zohidlik chegarasi qanday?” deya so‘raganida, “topmasak sabr qilamiz, topsak o‘zimizdan boshqalarga berishni afzal ko‘ramiz”, deb javob beradi u [7, 186].

Hasan Basriy aytadi: “Inson, modomiki, odamlar qo‘lidagi narsaga ko‘z tikmas ekan, ular uchun suyuqlidir. Kishi qachon boshqalar moliga ta‘ma ko‘zi bilan qarasa, odamlar uni hurmat qilmay qo‘yishadi. Suhbatidan qochib, o‘zini yomon ko‘rishadi”.

Fuzayl ibn Iyoz (rahimahulloh) aytadi: “Odamlar nazdida eng yaxshi inson odamlardan behojat bo‘lganidir. Odamlar nazdida eng yomon inson ularga muhtoj bo‘lganidir. Alloh nazdida eng yaxshi inson Unga muhtoj bo‘lganidir. Alloh taolo nazdida eng yomon odam esa, boshqalarga muhtoj bo‘lib, Yaratgandan o‘zini behojat hisoblaganidir”.

Muqaddas dinimizda ham allomalar qarashlarida ham har tomonlama sog‘lom bo‘lgan insonning ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyilligi, boqimandaligi qoralanganligi barobarida ularning kasb-hunar o‘rganib, mehnati orqali halol rizq topishlari kerakligi qayd etilgan.

Alloh taolo: “Kunduzni esa tirikchilik (vaqti) qildik”, deydi (Naba’, 11). Bu ham maosh, rizqu ro‘z topish uchun harakat qilish zarurligini bildiradi. O‘sha harakatga kasb qilish deyiladi.

Buyuk vatandoshimiz Hakim Termiziy Muoviya ibn Qurradan rivoyat qiladi: Umar ibn Hattob bir guruh odamlarga yo‘liqib qolib: “Sizlar kimsizlar?” deb so‘radi. “Tavakkul qiluvchilarmiz”, deyishdi. “Yo‘q, sizlar tekinxo‘rlarsiz, tavakkal qiluvchi avval donni yerga sepib qo‘yib, keyin Allohga tavakkal qiladi”, dedi. Demak, moddiy farovonlikka erishish uchun avvallo inson harakat qilishi, kasb-hunar o‘rganishi va o‘z ustida ishlashi lozim ekan.

Inson dunyoda yashar ekan, boshqalar bilan o‘zaro muomalada bo‘lishga majbur. U hayoti davomida boshqalar bilan qanday muomalada bo‘lish va ijtimoiy aloqalarni

o'rganishga muhtoj bo'ladi. Chunki har bir shaxs doimo jamiyat bilan uzviy bog'langan aloqalar orqali hayot kechiradi. Kishi yolg'iz o'ziga kerakli narsalarni muhayyo qilolmaydi va ehtiyojlarini qondiro olmaydi. Boshqalarning mehnati, hunari, mahorati va boshqa xususiyatlaridan foydalanishga majbur bo'la- di. Bemor tabibga, non yemoqchi bo'lgan novvoyga, kiyim-kechakka muhtoj odam tikuvchi yoki savdogarga murojaat qilishga majbur. Xullas, dunyoda hammaning bir-biriga ishi tushadi. Misol uchun, bir kishi yolg'iz o'zi qanday qilib dehqonchilikni uddalay oladi? Unga ish quroli va asbob-anjom kerak. Ish quroli va asboblarni yasash uchun temirchi va duradgor zarur. Qorni ochib qolganda ovqatlanib olish uchun oshpaz va novvoylar kerak. Shuning uchun inson bir o'zi yashay olmaydi, ular jamoalarga bo'lingan holda hayot kechiradilar. O'z navbatida, har bir inson kasbi, qo'lidan keladigan ishi bilan boshqalarning hojatini ravo qiladi. Odamlar o'z mehnatlarini yoki o'z mol-mulklarini evazsiz bir-birlariga bermaydilar. Buning o'rniga munosib biror narsa berish kerak bo'ladi. Shunday qilib, har bir inson xizmati evaziga haq olishi tabiiy holga aylangan. Alloh taolo odamlar orasida savdo-sotiq muomalasini joriy qilishining hikmati ham shunda, desak xato bo'lmaydi. Inson dunyoda hayot kechirishi uchun rizq talab qilishi kerak. Bunda har kimga o'z bilimi va kasb-hunari qo'l keladi. Shu vositalarni ishga solib pul, mol-dunyo topadi va o'z ehtiyojlarini qondiradi. Inson hayoti farovon bo'lishining shartlaridan biri halol kasb-hunar bilan shug'ullanishdir. Kasb-hunarli bo'lish haqidagi ajdodlarimizning hikmatli so'zlari orqali kishi yalqovlik, dangasalik, boqimandalik va tamagirlik kabi illatlardan saqlanishi kerakligi tushuniladi.

Yuqoridagi faktlardan xulosa shuki, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizda kambag'allarga yordam berish, ular hayotini farovon qilish, ularda tadbirkorlik ruhini uyg'otish, boqimandalikni yo'qotish kabi xislatlar asosiy o'rin egallagan.

Ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyillik, dangasalik, ishyoqmaslik barcha kulfatlarning boshidir. Kambag'allik ayb emas, ammo u yalqovlik sababidan kelgan bo'lsa, katta aybdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" Yangi asr avlodi, Toshkent 2016. 254-265 betlar
2. Кенжаева, Х. П. (2021). ФУҚАРОЛИК МАДАНИЯТИ МЕЗОНЛАРИ ШАРҚ ФАЛСАФАСИ ТАЛҚИНИДА. Academic research in educational sciences, 2(3).
3. Кенжаева, Х. П. (2021). Аёллар ижтимоий фаоллигини оширишда фуқаролик институтларининг ўрни. Scientific progress, 1(6), 957-961.
4. Кенжаева, Х. П., Тожиев, Ф. И., & Жураев, Б. Н. (2014). РОЛЬ ЖЕНЩИН В СОЗДАНИИ И РАЗВИТИИ ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Инновации в технологиях и образовании (pp. 119-123).

5. K.Hashimov, S.Nishonova “Pedagogika tarixi” II-qism, darslik. Toshkent-2005, 113-b.
6. Mo‘min Xoshimxonov “Mashrabi mo‘tabar o‘zum” Toshkent-2008
7. Usmon ibn Hasan ibn Ahmad Shokir Xubariy DURRATUN NOSIHIYN (Nasihatgo‘ylar duri) Movorounnahr-2004, 186-b
8. Yusuf Xos Hojib “Qutadug‘u bilig” Toshkent 2014